

Uzbekistan Airways xalqaro triatlon startida!

2025 26 May

24-25-may kunlari Samarqanddagi "Silk Road Samarkand" Xalqaro turizm markazi hududida yirik sport musobaqalari – World Triathlon Cup Samarkand-2025 va World Triathlon Para Cup Samarkand-2025 bo'lib o'tdi. Bu triatlon va paratriatlon bo'yicha Jahan Kubogi bosqichlarida dunyoning turli burchaklaridan Elite toifasidagi eng kuchli sportchilar ishtirok etdilar!

Tadbir doirasida O'zbekiston ochiq championati ham o'tkazildi va faxr bilan ma'lum qilamiz: Uzbekistan Airways muhandis-inspektori Alisher Radjabov Standard masofasini (suzish – 1,5 km, velosiped – 40 km, yugurish – 10 km) muvaffaqiyatli bosib o'tib, 50-54 yosh toifasida 2-o'rinni egalladi!

A'lo natija va munosib ishtirok bilan tabriklaymiz! Kuch, bardoshlilik va iroda – bu biz osmonu yerda faxrlanadigan fazilatlar!